

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

MADANIYAT TRANSFERINING FANDAGI O‘RNI

*Barnoxon Shamsiyeva**O‘qituvchi PhD,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O‘zbekiston**Email: barnokhon_hi@yahoo.com**ORCID ID: 0009-0009-5708-1255*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: transfer, madaniyat transferi, o‘ztkazish, ko‘chirish, assotsiyatsiya, dunyoning lisoniy manzarasi.

Annotatsiya: Keyingi yillarda fanlaro ayni terminlarning qo‘llanishi kuzatilmoqda. Bu bir tomondan fanlarning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan bunday terminologik birliklar fan doirasida o‘ziga xos talqinni ham talab qiladi. “Transfer”, “madaniyat transferi” terminlari ham shular jumlasidan bo‘lib, bu borada ilmiy izlanish olib boorish olimlarni ushbu fanlararo terminologik birlik ostida xalqaro, fanlararo ilmiy anjumanlarda birlashishi imkoniyatini bermoqda. Bugunga kelib, madaniyat transferi haqidagi turli xil ta’rif, yondashuvlar mavjud, lekin bu doiradagi tadqiqotlarning asosida madaniyat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni, yetkazish va qabul qilish jarayoni tahlili, o‘zga madaniyatni retsepsiya va interpretatsiya jarayonlarini o‘rganish tadqiqotchilarni umumiy bir yo‘lda birlashtiradi. Ushbu maqolada “transfer” hamda “madaniyat transferi”ning nafaqat tilshunoslik va tarjimashunoslikdagi o‘rni, balki, boshqa fanlardagi qo‘llanish doirasi haqida ham so‘z yuritiladi. Shuningdek, “transfer” terminining “ko‘chish”, “o‘tkazish” tushunchalari bilan o‘zaro farqlari ochib berilgan va bu borada fikr xulosalangan. Maqolaning maqsadi “transfer” va “madaniyat transferi” terminlarining fanlaro chegarasini belgilshdan iborat. Buni yoritishda izohli lug‘atlar, fanga oid lug‘atlar, shu sohada ilmiy ish olib borgan tadqiqotchilar fikrlariga tayanildi. Mazkur ishda ishning

ob'yekti bo'lgan terminlarning xususan tarjimashunoslikdagi o'rni haqida alohida to'xtalib o'tilgan. Olib borilgan tadqiqotdan shunday xulosaga kelinadiki, transfer va tarjima ma'lum va noma'lum belgilar o'rtasidagi semiotik masofada faoliyat yurgizadi. Badiiy matnda madaniyat transferining sodir bo'lishi – ma'lum bir g'oyalarning begona madaniyat maydoniga “ko'chishi”, badiiy matnning yangi hayoti, yangi muhit sharoitidan kelib chiqib moslashishini, bir so'z o'ziga yangi ma'no “yuklab” olishi va assotsiatsiyalari bilan bog'liq masalalarni tarjimashunoslikda madaniyat transferi nazariyasining asosini tashkil qiladi.

THE ROLE OF CULTURAL TRANSFER IN SCIENCE

Barnoxon Shamsiyeva

Lecturer, PhD

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: transfer, cultural transfer, move, resettlement, association, natural language metaphysics.

Abstract: In recent years, the use of the same interdisciplinary terms has been observed. On the one hand, this indicates the interdependence of the sciences, on the other hand, such terminological units require a specific interpretation within the framework of science. Also, the terms "Transfer" and "Transfer of culture" are included in this composition, and conducting scientific research in this industry gives scientists the opportunity to unite under this interdisciplinary terminological unity at international, interdisciplinary scientific conferences. To date, there are various definitions and approaches to the transfer of culture, but the basis of research in this area that unites applicants in this area is the study of the interaction of culture and society, the analysis of the process of transmission and receipt, the processes of reception and interpretation of a foreign culture. This article talks about the role of "transfer" and "cultural transfer" not only in linguistics and translation studies, but also about the scope in other disciplines. The differences between the term "translation" and the concepts of "relocation" and "translation" are also revealed, and the opinion on this matter is generalized. The purpose of the article is to define the interdisciplinary boundaries of the terms "transfer" and "cultural transfer". To clarify this, explanatory dictionaries, scientific dictionaries, and the opinions of researchers who carried out scientific work in this

area were used. This paper discusses the role of the terms that are the object of the work, especially in translation studies. Based on the study, it is concluded that transference and translation operate in the semiotic distance between known and unknown symbols. The emergence of cultural transfer in a literary text is the “moving” of certain ideas into the field of a foreign culture, the new life of a literary text, its adaptation to new environmental conditions, the “loading” of a word with a new meaning. issues related to acquisition and associations form the basis of cultural transfer theory in translation studies.

РОЛЬ КУЛЬТУРНОГО ТРАНСФЕРА В НАУКЕ

Барнохан Шамсиева

Преподаватель, PhD

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:
трансфер, культурный трансфер, перенос, переселение, ассоциация, языковой картина мира.

Аннотация: В последние годы наблюдается использование одних и тех же междисциплинарных терминов. С одной стороны, это свидетельствует о взаимообусловленности наук, с другой стороны, такие терминологические единицы требуют специфического толкования в рамках науки. Также термины «Трансфер» и «Трансфер культуры», входят в этот состав и проведение научных исследований в этой отрасли дает ученым возможность объединяться под этим междисциплинарным терминологическим единством на международных, междисциплинарных научных конференциях. На сегодняшний день существуют различные определения и подходы к трансферу культуры, но основу исследований в этой области объединяющий соискателей в этой сфере составляет изучение взаимодействия культуры и общества, анализ процесса передачи и получения, процессов рецепции и интерпретации чужой культуры.

В данной статье говорится о роли «трансфера» и «культурного трансфера» не только в языкознании и переводоведении, но и о сфере применения в других дисциплинах. Также выявляются отличия термина «перевод» от понятий «переезд» и «перевод», а также обобщается мнение на этот счет. Цель статьи - определить междисциплинарные границы терминов

«трансфер» и «культурный трансфер». Для выяснения этого использовались толковые словари, научные словари, мнения исследователей, проводивших научную работу в этой области. В настоящей работе обсуждается роль терминов, являющихся объектом работы, особенно в переводоведении. На основании проведенного исследования делается вывод, что перенос и перевод действуют в семиотической дистанции между известными и неизвестными символами. Возникновение культурного трансфера в художественном тексте – «переезд» определенных идей в поле чужой культуры, новая жизнь художественного текста, его адаптация с учетом новых условий внешней среды, «нагружение» слова новым смыслом. Вопросы, связанные с приобретением и ассоциациями, составляют основу теории культурного переноса в переводоведении.

KIRISH

Oxirgi yillarda fanlararo o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish tendensiyasi, integratsiya tezligining oshishi munosabati bilan tilshunoslikka ham boshqa fanlardan atamalar tobora ko‘proq kirib kelmoqda. Fanlararo ayni atamalarni qo‘llash bir tomondan ularning ma'nolarini kengaytirib fanlararo o‘rnini belgilab bersa, boshqa tomondan bunday terminologik birliklar fan doirasida o‘ziga xos talqinni ham qabul qiladi. Buning natijasida turli ilmiy fanlar o‘rtasida dialog yuzaga kelishi, olimlarning ma'lum bir tanlangan fanlararo terminologik birlik ostida xalqaro, fanlararo ilmiy anjumanlarda birlashishi imkoniyatini beradi.

Hozirgi vaqtda “ko‘chirish”, “o‘tkazish” kabi tushunchalar bilan deyarli bir ma'noda qo‘llaniladigan “transfer” atamasi ham fanga jadal suratda kirib kelmoqda. Asli lotin tilidan olingan “transfer” so‘zi yuqoridagi so‘zlar bilan sinonim sifatida ishlatilsa-da, D.V.Lobachyovaning fikriga ko‘ra, “transfer” so‘zi unga vazifadosh bo‘lgan boshqa so‘zlarga nisbatan stilistik jihatdan neytral, salbiy konnotatsiyalardan xoli ekanligi bilan bir qatorda turli fan yo‘nalishlarida keng qo‘llanilayotgan termindir. Ushbu so‘z sohalararo eng keng tarqalgan atamalardan biri sifatida, sayyohlik, bank amaliyotlari, tibbiyot, sport, bog‘dorchilik, biologiya kabi sohalarda qo‘llanilishi bilan birga adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik yo‘nalishlarida ham bu atama bilan bog‘liq qator ilmiy ishlarni kuzatish mumkin.

“Kembridj izohli lug‘ati”da “biror narsa yoki kimsaning boshqa joyga, vaziyatga, guruhga ko‘chishi”, deb izoh berilsa, Oxford nashriyotida chop etilgan Lexico lug‘atida “bir joydan boshqasiga ko‘chish” deb ifodalangan.

1988 yilda chop etilgan “Slovar inostrannykh slov” lug‘atida transfer so‘zi transfert ko‘rinishida ham berilgan bo‘lib, unda ushbu terminning faqatgina iqtisodiy hamda yuridik sohalarda ishlatiladigan ma'nolari yoritilgan. Lug‘atning 2000, 2008-yilda qayta chop etilgan nusxasida ham huch qanday o‘zgarishsiz ayni shu izohlar ko‘rsatilgan.

2004 yilda nashrdan chiqqan O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida ham aynan shu izohlar o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z qilingan tarjimada aks etgan. Bundan xulosa qilinadiki,

“transfer” atamasining lug‘at va ensiklopediyalardagi izohlari fanlararo atama sifatida qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

S.Bochaver va V.Фещенkolar o‘z maqolasida transfer atamasining fanga kirib kelishi tarixi haqida qisqacha ma‘lumot berishgan. Unga ko‘ra, transfer atamasini birinchi marta 1905 yili Z.Freyd tomonidan olmon tilida Übertragung, ruhshunoslik fanida hodisa sifatida ilmiy atamani fanga olib kirgan. Keyinchalik ushbu atama ingliz tiliga transference, fransuz tiliga esa transfert sifatida kirib keladi. Rus tilshunosligiga ushbu termin 1950 yillari ilmiy adabiyotlariga kirib kelgan .

Polsha-amerikalik tilshunos V.Vaynreyx 1953 yili ko‘p tilli jamiyatlarda zullisonaynlikka bag‘ishlangan "Aloqadagi tillar" (Languages in Contact) nomli kitob nashr etdi . Bu kitobda transfer masalasi ilk bor tilshunoslik nuqtai nazaridan yoritilgan bo‘lib, unda jamiyatda ikki tillilik ta‘siri natijasida bir til tizimi elementlarining boshqa til elementlari bilan o‘zaro o‘xshashlik tomonlari, aralashish holatlari bayon qilingan. Bir yil o‘tib, 1954-yilda Z.Xarrisning "Transfer grammatikasi" (Transfer Grammar) nomli maqolasida transfer atamasi til strukturasi nisbatan qo‘llaniladi . Unda transfer tillararo tarkibiy farqlarni aniqlash vositasi sifatida tilga olingan. Va shu maqolada transfer atamasi "tarjima" terminiga sinonim sifatida ishlatilishi mumkin degan fikrni ilgari suradi, ya‘ni agar tarjima ma‘lumotning birliklari, shakllari va ma‘nolarini boshqa tilda qayta ifodalash bo‘lsa, u holda transfer turli tillarning chuqur tuzilmalari va ular orasidagi farqni o‘lchash vositasi sifatida qaraladi.

Yaponiyada chop etilgan “Madaniyatlararo muloqot masalasi” (異文化コミュニケーション) nomli ilmiy maqolalar to‘plamida Nishida Xiroko “transfer” atamasiga “ikki tilning aloqa olami, ikki tildan birining boshqasiga ta‘siri kuchliligini, ikkinchi til birinchisining ta‘sirini o‘ziga singdirayotganiga aytiladi” deb ta‘rif beradi . Tadqiqotchi Y.Ujarevich o‘zining maqolasida “transfer” atamasiga eng sodda ta‘rifni berib o‘tadi. Uningcha, maqsad qilingan ob‘ekt (tarjima, o‘tkazishlar)ning bir nuqtadan ikkinchisiga qandaydir vosita orqali ko‘chishi bo‘lib, odatda bu hodisa birinchi nuqtaga tegishli bo‘ladi. K.Engel esa madaniyatshunoslik sohasida “transfer”ni “almashtirish” tushunchasi bilan ifodalaydi . Demak, “transfer” tushunchasi biror ob‘ektning A nuqtadan V nuqtaga ko‘chishi bo‘lib, ular albatta vosita orqali sodir bo‘ladi.

"Transfer" atamasining tadqiqot mavzuyi doirasidagi ma‘no chegarasi aynan tilshunoslikda paydo bo‘lgan va rivojlangan. Kelgusida bu atama tilshunoslik chegarasidan chiqib, boshqa gumanitar fanlar doirasiga ham kirib bordi. Xususan, transfer tushunchasi tarjimashunoslik fanida ham o‘z o‘rnini topdi.

“Transfer” atamasining tarjimashunoslikdagi o‘rni haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, Pim Antoni o‘zining monografiyasida tarjima matni hamda transferning farqini va o‘zaro bog‘liqlik taraflari haqida fikr yuritadi. Uning ta‘kidlashicha, ingliz tilidagi “translation(tarjima)” hamda “transfer” so‘zlari lotin tilidagi “translatus” (“transfere” fe‘lining o‘tgan zamon shakli) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “olib o‘tish, ko‘chirish” ma‘nolarini anglatadi. Ushbu so‘zlarning bir o‘zakdan hosil bo‘lganini bildirib, o‘zaro farqi haqida quyidagicha fikrni ilgari suradi: “tarjima – bu javobgarlik, transfer esa qayta taqdim etishdir” . Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, tarjima bor joyda transfer ham mavjud. Transfer esa tarjimani talab qiladi.

I.Zoxarning fikricha, garchi asl matn va tarjima matni munosabatlari qonun qoidasi bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘lsa ham, transfer sifatida tarjima qilingan so‘z yoki matn aslicha qabul qilinmaydi . Ushbu ta‘rif tadqiqot ishida transfer tushunchasiga yondashuvimizning asosiy g‘oyasini ifoda etadi.

Ishil Gamzening “Cultural Transfer through Translation: Turkish Samples” nomli maqolasida transferni tarjima uchun vosita deb baholaydi va u nafaqat yozma, balki madaniy komponentlarni qamragan og‘zaki nutqqa ham tegishli degan fikrini o‘z maqolasida ilgari suradi. Shunday ekan, aytish mumkinki, tarjima faqatgina til bilangina emas balki, madaniyat elementlarini ham transfer qilgan holda amalga oshadi.

S.Kalinin ilmiy tadqiqot ishida transferni lingvomadaniyat nuqtai nazaridan o‘rganib, transfer tushunchasiga ta’rif beradi. Unga ko‘ra, transfer turli tillar va madaniyat orasidagi informatsion almashinish sifatida tushunilib, ushbu almashinuv uchun ma’lum qoidalar to‘plamidan foydalanish tushuniladi va bunda tarjima uchun ham foydalanish mumkinligi ta’kidlanadi. Tadqiqotchining fikricha, axborot uzatish shakllaridan biri sifatida lingvomadaniyat transferining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu jarayon algoritmi axborot uzatishning strukturaviy tarjima modeli tomonidan tavsiflangan qonunlarga bo‘ysunadi. Shuningdek, S.Kalinin o‘z tadqiqotining birinchi bo‘lim xulosasida transferning ikki shaklini keltiradi. Ular, sinxron transfer va diaxronik transfer bo‘lib, bunda ma’lumotni uzatish jarayoni, uni ko‘paytirish va tarjima qilish, shuningdek donor tillari o‘rtasida ma’lumot almashish va uning jarayonini misol qilib keltiradi.

V.Z.Demyankov madaniyat transferini ikki turga bo‘lib o‘rganadi. Birinchisi “belgi transferi”, ikkinchisini “bilim transferi” deb nomlaydi. Unga ko‘ra “belgi transferi” atamasi asosan tarjimashunoslikda qo‘llanilib, bunda ma’lum bir belgi o‘z shakl va funksiyalar salohiyatini saqlagan holda bir ma’lumot strukturasi boshqasiga o‘tkazilishi sifatida ta’rif beriladi. “Bilimlar transferi”da esa tajriba, malaka, ko‘nikmalar, ma’lumotlar, umuman olganda turli xil informatsiyalar almashinuv sifatida tushuniladi.

Agar matnni ma’lum jamiyat yoki vaziyatga qarashli deb oladigan bo‘lsak, va uni boshqa makonga “ko‘chirsak”, matnning asl nusxasi o‘zgaradi. Transfer natijasida tanish belgilar begonalik darajasiga o‘zgarib boradi. Matnning jamiyat va til tomonidan qabul qilinish shartlariga ko‘ra transfer bo‘lgan matnning o‘zgarish darajalari belgilanadi. Bu darajalar xoh kichkina yoki katta bo‘lmasin, transfer bo‘lgan so‘z yoki matn asl tilga nisbatan bo‘lgan qimmatini yo‘qotadi.

“Transfer” atamasini o‘rganish jarayonida, uni turli sohalarda qo‘llanilishining guvohi bo‘lindi. Bular ichida, kiyim yorlig‘ida ingliz tilida yozilgan “the color may transfer” jumlasini o‘ziga e’tibor tortdi. So‘zma-so‘z tarjima qilsak, “rang ko‘chishi mumkin”, ya’ni kiyimni yuvish jarayonida rangi boshqa kiyimga o‘tishi mumkin degan ma’noni anglatadi. Masalan, kiyim yuvish jarayonida ko‘k rangli kiyimning rangi yashil rangli kiyimga yuqib qolsa, yashil rangdagi kiyim boshqa rang tusini oladi. Bu holatdan so‘ng, bir qarashda uni yashil deb ham, ko‘k deb ham atab bo‘lmaydi. Tadqiqot mavzusi bo‘lgan madaniyat transferida ham shunga o‘xshash hodisani kuzatish mumkin. Bir til madaniyati boshqa bir tilga tarjima qilinganda, madaniyatning “siljishi” sodir bo‘ladi. Va madaniyatga oid bo‘lgan so‘z boshqa bir tilga tarjima qilinganida, boshqa assotsiatsiya bilan qabul qilinadi. Uning asl matndagi ma’nosi tarjima matnida o‘z vazifasini o‘zgartirishi mumkin.

Demak, “transfer” atamasi o‘zaro almashish va o‘tkazish jarayoni sifatida ko‘rib, sohalarda birinchi ob’ektdagi yangi g‘oya (nazariya, shaxs, madaniyat va h.k.)larning ikkinchi ob’ektga o‘tishi va moslashishi tushuniladi. O‘rganilgan bir qancha rus ilmiy maqolalarida “transfer” so‘zi “perenos”, “obmen” so‘zi bilan almashtirilgani kuzatildi. Yuqorida keltirilgan D.V.Lobachyovanning fikriga tayanib, fanda “transfer” tushunchasini unga sinonim bo‘lgan so‘zlar bilan almashtirilishini yoqlamaymiz. Chunki, “transfer” so‘zi boshqa sinonimik so‘zlar bilan almashtirilganda, o‘ziga salbiy konnotatsiyani ham yuklab olishi mumkin hamda M.Espan va M.Vernerlarning “madaniyat transferi har doim adaptatsiya va assimiliatsiyani qamrab oladi”

degan ta'riflariga asoslanib, "transfer" so'zining o'rniga "almashish", "o'tkazish" so'zlari qo'llanilsa, undagi semantik belgilar tushib qoladi.

1990 yillarda «madaniyat transferi» o'z sahnini yanada kengaytirib Markaziy hamda Sharqiy yevropa davlatlarining o'zaro siyosiy va madaniy aloqalarini o'rgana boshladi. Ushbu uslubning samarali natijasi uning ijtimoiy sohalar, jumladan, tarix, me'morchilik, san'at, san'at tarixi kabi qator fanlarda ham tadqiqot mavzusi sifatida tanlandi. Madaniyat transferi nazariyasi asoschisi M.Espanning ta'kidlashicha ham "madaniyat transferi" atamasi iqtisodiy, demografik, psixologik va hattoki, intellektual tadqiqotlarda ham qo'llanilishi mumkin. Uning fikricha, madaniy arealga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar doirasini kengaytirish madaniyatning harakat mexanizmini chuqurroq tushunishga yordam beradi .

Madaniyat transferi nazariyasini o'rganishda uning asoschilari M.Espan va M.Vernerlarning ilmiy asarlari muhim o'rin tutadi. 1996 yilda rus olimlarining ham "madaniyat transferi" laboratoriyasiga kelib qo'shilishi uning geografik jihatdan yanada kengayishiga olib keldi. Rus olimlaridan ye.Dmitrievaning M.Espan bilan hamkorlikdagi ishlari, I.Lagutina, D.Lobachyova, I.Fedorovanning ilmiy ishlarida qiyosiy metodga tayanib yozilgan monografiya, ilmiy maqolalari ushbu hamkorlikning sermahsul natijasi sifatida qaraladi .

I.N.Lagutina o'zining monografiyasida adabiyotshunoslik hamda tarjimashunoslikning hozirgi kundagi dolzarb muammosi – g'oya, tasvir, asarlarni boshqa ijtimoiy-madaniy makonga o'tkazish (transfer) masalalariga bag'ishlangan bo'lib, XVIII asrning oxirlari – XX asr boshlarida rus va olmon adabiyotining o'zaro ta'siri, "begona" madaniyatning kirib kelishi va uning qabul qilinishi, va transfer jarayonida "vositachi"larning, ya'ni yozuvchilarning o'zni, ular yashagan davrning badiiy adabiyotlarga qilgan ta'siri haqida bayon qilingan. F.M.Klingerning "Faust" asari yozilgan davr va uning Rossiyada qiziqish bilan qabul qilingani, XX asr boshlarida rus estetikasi ramzi sifatida Gyotening qabul qilinishi shular jumlasidandir.

I.N.Lagutina matni madaniyat transferi nazariyasi asosida tadqiq qilar ekan, bunday matn madaniyatning yangi sifatlarini o'ziga singdirishi, biror matn boshqa madaniy kontekstga ko'chganda, bir tomondan, yangi ma'no va vazifaga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, kirib borgan madaniyatga ta'sir qilib, uni o'zgartirishini ta'kidlaydi . Uning fikricha, har bir kichik motiv, eng minimal darajadagi kontekst ham asarga ta'sir qiladi, zero, bunday kichik kontekstlardan bir qancha bo'lishi mumkin. An'anaviy qiyosiy adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda ishlatiladigan "o'zaro aloqa, ta'sir", "o'zaro bog'liqlik" terminlari matndagi ijtimoiy-madaniy atamalarni tadqiq qilishda yetarli bo'la olmaydi. Bu o'rinda madaniyat transferi matndagi g'oyalar, tushunchalarni to'g'ri yetkazib berishga xizmat qiladi . "Madaniyat transferi" nazariyasida lingvomadaniy birliklarning tarjima qilingan asar madaniyatida qanday bo'lsa, shundayligicha namoyon bo'lishi emas, balki, yangi madaniyatda qanday ko'rinishda o'rin olganligi, uni qabul qiluvchi madaniyatga qay tarzda moslashishi masalasi muhimdir.

Fransuz olimi M.Espanning ta'riflashicha, madaniyat transferi – bu tarjimaga yaqin tushuncha bo'lib, u bir koddan boshqasiga o'tishni taqozo qiladi, biroq har doim ham tarjima bilan aynan tarzda izohlanmaydi . M.Espan tarjima va transfering o'zaro farqi haqida to'xtalib, madaniyat transferi uchun romanning istalgan tildagi nashrini boshqa tildan qilingan tarjimasiga taqqoslash, muqovasining illyustratsiyasi, formatlari, hattoki matbaasi o'rtasidagi farqlarni kuzatishning o'zi kifoya qilishini, bu esa tarjima bilan ekvivalentlilikni bildirmasligini ta'kidlaydi .

M.Espan madaniyat transferining bir nechta tadqiqot metodlarini ishlab chiqqan. Ularning asosiy qismlarini tadqiqotchi I.N.Mineeva sanab o'tadi:

1) qiyoslanayotgan madaniyat ob'ektlarini "yuboruvchi" va "qabul qiluvchi" tomonlar tomonidan o'z genezisi (kelib chiqishi) dinamikasida tahlil qilish. Chunki, "har xil davrlarda har xil kontekstlar vujudga keladi va bu jarayon madaniy maydonlarda bir vaqtning o'zida sodir bo'lmashligi yuzasidan transfer amalga oshadi";

2) Tahlil qilinayotgan ob'ektning asl kontekstidan farqlarini baholash, tanqid qilish o'rniga, uni o'z kontekstidan yangi, qabul qilgan kontekstga o'tishi hamda o'zlashtirish jarayonlarining tavsifi, "mikroskop ostida ko'rish" metodi;

3) Ob'ektni "eksport" va "import qilish" usullari va mexanizmlarini aniqlash;

4) Transferga sababchi bo'ladigan vositachilar, ya'ni sayohatchilar, tarjimonlar, chet elliklar, olimlar, noshirlar, muzeylar, rassomlar, akademiya, universitet kabilarni tahlil qilish va ularning ta'sir kuchi, xususiyatini aniqlash;

5) Ob'ektning kirib kelishi va uning o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan transformatsiya, o'zgarish, siljishlarni aniqlash;

6) Milliy atamalarda dastlabki kontekstni aniqlash, chunki idrok etish konteksti bilan dastlabki kontekstlar orasida katta "maydon" bo'lib, ana shularda madaniyat transferining dinamikasi namoyon bo'ladi;

7) Dastavvaldan gibrid shaklga ega bo'lgan import bo'lgan ob'ektning xususiyatlariga ahamiyat berish ("Har qanday milliy shakllanish avvalgi kesishuvlar natijasidir.");

8) Madaniyatdagi kesishuv nuqtalarini, o'xshash tomonlarini o'rganish va ularni o'zagini aniqlash;

9) Ishlab chiqarish, uzatish, izlanishga imkon beradigan intellektual vositalarni aniqlash va tahlil qilish. Ular sirasiga tarjima, nashriyot, kitoblar to'plami, ta'lim, ilmiy fanlarni kiritish mumkin;

10) Qabul qiluvchi madaniyatning ehtiyojlari, idrok etish tayyorgarligiga bog'liq bo'lgan asl madaniyatdagi g'oyalar va narsalarni eksport qilish zarurati hamda transfer jarayonida transformatsiya dinamikasini tahlil qilish .

Yuqorida keltirilgan madaniyat transferining ilmiy tadqiqot metodlaridan anglash mumkinki, madaniyat transferi metodologiyasini qo'llash, bu borada ilmiy izlanishlar olib borish madaniy hodisalar, madaniy voqyea, madaniy faktlar, vositachilar roliga boshqa nuqtai nazardan yondashishga chorlab, yangi qirralarini aniqlashda imkoniyatlar eshigini ochadi.

Hozirgi davrda tarjimashunoslik sohasidagi tadqiqotlarda madaniyat nuqtai nazaridan "milliy kolorit" bilan bog'liq tadqiqotlar ham ommalashgan bo'lib, asosiy urg'uni tarjima matnida madaniyatga oid so'zlarning berilishi va madaniyatga oid so'zlarning saqlab qolinishi, so'zning mos ekvivalent va muqobillarini topish, xato va kamchiliklari ustida tadqiqot olib boriladi. Madaniyat transferi nazariyasi asl matn millat madaniyatining tarjima matniga o'girilganda undagi g'oyalar va belgilar, tushunchalarda ma'no "siljishi"ning ro'y berishi, u haqidagi tasavvurlar tarjima matnida qanday amalga oshirilganini madaniyat transferi nazariyasi o'rganadi. Va albatta, bu uslubdagi tadqiqotda tarjimon vositachi vazifasini bajaradi. Ta'kidlash joizki, lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinayotgan tarjima matniga "natija" sifatida qaralib, uning xato va kamchiliklari haqida emas balki, badiiy matnga "ko'chgan" so'zning xususiyatlari o'rganiladi. Shu o'rinda Gyotening, "tarjimonning kamchiliklari haqida qanday mulohazalar aytilganidan qat'i nazar, uning mehnati butun olamni birlashtirish yo'lida bajarilgan eng muhim va eng asosiy ish bo'lib qoladi" degan jumlasini keltirish o'rinni.

Tarjimashunoslik sohasida madaniyat transferi tarjimaning adaptatsiya usuli natijasida yuzaga keladi. Chunki matn asliyat tilidan boshqa tilga tarjima qilinar ekan, nafaqat tillar orasidagi leksik-grammatik farqlarga, balki xalqlar madaniyati, tasavvurlari, e'tiqodlari o'rtasidagi katta tafovutlarga ham duch kelinadi. Tarjimon matnni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilsa, asl matndagi ma'no xiralashishi, milliy-madaniy semali birliklar ma'nosi yuzaga chiqmasligi yoki umuman tushirib qoldirilishi mumkin. Mana shunday vaziyatda tarjimon tarjimaning adaptatsiya usuliga murojaat qilishi lozim bo'ladi.

Bugunga kelib, madaniyat transferi haqidagi turli xil ta'rif, yondashuvlar mavjud, lekin ushbu tadqiqotning asosida madaniyat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, yetkazish va qabul qilish jarayoni tahlili, o'zga madaniyatni retsepsiya va interpretatsiya jarayonlarini o'rganish tadqiqotchilarni umumiy bir yo'lda birlashtiradi. Matnlar, g'oyalar transferi doirasida tadqiqot olib borgan P.Antoniga ko'ra, "agar material transfer bo'lmaganda edi, agar matnlar vaqt bo'ylab va makon osha tashilmaganda edi, birorta ham tarjima bo'lmas edi" degan fikrni ilgari suradi. Badiiy adabiyotlar transferini tadqiq qilgan olim I.N.Lagutina esa, madaniyatning ko'chishida tarjimaning o'rni haqida quyidagicha mulohaza qiladi: "milliy adabiyot boshqa millat adabiyotiga ham ta'sir o'tkazib, kommunikativ muloqotni ta'minlaydi. Adabiyotlar o'zaro muloqotga kirishganda biri ikkinchisining rivojiga hissa qo'shadi va ushbu o'zaro muloqotning davomiyligini esa tarjima matni ta'minlaydi". Tadqiqot mavzuyi tor doirada bo'lib, tarjima matni transfer sifatida ko'rib chiqildi.

Tarjima transferini tahlil qilishda, tarjimaning nimaga urg'u berib amalga oshirilganini inobatga olish muhim masala. P.Nyumark asl matnga yoki tarjima matniga urg'u berilgan tarjimalarni tarjima usullari guruhiga bo'lib, ajratib chiqqan. Unga ko'ra, asliyat tiliga urg'u berilgan tarjima usullari: lug'aviy tarjima (yoki to'g'ridan-to'g'ri tarjima), so'zma-so'z tarjima, asliyatga sodiq tarjima, semantik tarjimalardir. Tarjima tiliga urg'u berilgan tarjima usullariga esa adaptatsiya, erkin tarjima, idiomatik tarjima hamda kommunikativ tarjima usullarini sanab o'tadi. Ko'rinib turibdiki, asliyat tiliga urg'u berilgan tarjima usullari ko'proq rasmiy yo'nalishga xos bo'lsa, tarjima tilini maqsad qilib amalga oshirilgan tarjimalarda badiiy tarjima yo'nalishini qo'llab-quvvatlashi kuzatildi.

XULOSA

Shunday xulosaga kelinadiki, transfer va tarjima ma'lum va noma'lum belgilar o'rtasidagi semiotik masofada faoliyat yurgizadi. Badiiy matnda madaniyat transferining sodir bo'lishi – ma'lum bir g'oyalarning begona madaniyat maydoniga "ko'chishi", badiiy matnning yangi hayoti, yangi muhit sharoitidan kelib chiqib moslashishini, bir so'z o'ziga yangi ma'no "yuklab" olishi va assotsiatsiyalari bilan bog'liq masalalarni tarjimashunoslikda madaniyat transferi nazariyasining asosini tashkil qiladi.

"Transfer" tushunchasi xalqaro so'z sifatida ishlatilayotgan bo'lsa-da, ba'zi ilmiy asarlarda "ko'chish", "o'tkazish" kabi sinonimlari ham ushbu atamaga nisbatan ishlatilayotgani guvohi bo'lindi. "Transfer" so'zi boshqa sinonimik so'zlar bilan almashtirilganda, o'ziga salbiy konnotatsiyani ham yuklab olishi mumkin hamda "transfer" so'zining adaptatsiya va assimilyasiyani qamrab olishini hisobga olib, ushbu termin o'rniga "almashish", "o'tkazish" so'zlari qo'llanilsa, undagi semantik belgilar tushib qoladi. "Translation" va "transfer" so'zlari lotin tilidagi "translatus" ("transfere" fe'lining o'tgan zamon shakli) so'zidan kelib chiqqanini

hisobga olib, tarjima bor joyda transfer ham mavjud va transfer ham doim tarjimani talab qiladi degan fikr ilgari surildi.

Badiiy matnning transfer bo'lishi – ma'lum bir g'oyalarning begona madaniyat maydonida idrok qilinishi, badiiy matnning yangi hayoti, yangi muhit sharoitidan kelib chiqib moslashishini va shunda ham asar g'oyasini saqlab qolishi tarjimashunoslikda madaniyat transferi nazariyasining asosini tashkil qiladi.

Madaniyat transferi tarjima matniga ko'chgan so'zning xususiyatlari o'rganiladi va madaniyatlarni ajratish emas, balki tutashtirish hamda tarjima matnida adaptatsiya natijasida hosil bo'lgan tasavvur bilan bog'liq holatlar o'rganiladi.

Tarjima matni asliyat bilan solishtirganda yangi ma'nolar bilan to'ldirilgan bo'ladi va bu ma'nolar o'zi bilan asliyat matnidan farqli yangi assotsiatsiyalarni ergashtiradi.

Adaptatsiya nafaqat tillar assimetriyasi, balki madaniyatlar assimetriyasida qo'llaniladi. Shu jihatdan, adaptatsiya matnning ma'no tizimini saqlab qolish, shunga o'xshash kommunikativ ta'sirga erishish uchun aynan zarur.

Asl matnda qanchalik ko'p milliy bo'yoqdorlik leksik birliklar uchrasa, u shuncha ko'p tarjima tiliga moslashtiriladi. Asliyat tarjima tiliga moslashtirilganda madaniy ma'no o'zgarishi mumkin, tarjima bo'lgan so'z yoki kontekst yangi ma'no assotsiatsiyalari bilan o'ralib, madaniy rolini ham o'zgartiradi.